



FARG'ONA VODIYSI JADIDLARINING MILLIY UYG'ONISH JARAYONIDAGI O'RNI

Boqijonova Sarvinozxon Bahromjon qizi

Namangan davlat universiteti, tarix yo'nalishi

E-mail: boqijonova29@gmail.com

Tel: +998773540114

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21428235>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 14-iyul 2026 yil

Ma'qullandi: 16-iyul 2026 yil

Nashr qilindi: 18-iyul 2026 yil

KEY WORDS

Farg'ona vodiysi, jadidchilik, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, yangi usul maktablari, Ishoqxon Ibrat, Hamza, Cho'lpon, milliy tafakkur, Turkiston..

ABSTRACT

Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining milliy uyg'onish jarayonidagi o'rni tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Farg'ona vodiysida yangi usul maktablarining tashkil etilishi, matbuot, teatr va adabiyotning rivojlanishi, shuningdek, Ishoqxon Ibrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy singari ma'rifatparvarlarning milliy tafakkurni yuksaltirish yo'lidagi faoliyati yoritilgan. Jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari, milliy o'zlikni anglash, zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirish hamda jamiyatni isloh etish borasidagi qarashlari ilmiy jihatdan baholanadi. Shuningdek, Farg'ona vodiysi jadidlarining Turkiston milliy uyg'onish harakatidagi o'rni va ularning tarixiy merosining bugungi kundagi ahamiyati ochib beriladi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati ta'sirida chuqur siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. 1865-yilda Toshkentning, 1868-yilda Samarqandning, 1876-yilda esa Qo'qon xonligining tugatilishi natijasida Farg'ona vodiysi Rossiya imperiyasi tarkibidagi **Farg'ona viloyati** sifatida boshqarila boshlandi. Mustamlakachilik siyosati mahalliy aholi hayotiga, ta'lim tizimiga va milliy qadriyatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda jamiyatni ilm-ma'rifat orqali taraqqiy ettirish g'oyasi asosida jadidchilik harakati shakllandi. Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy uyg'onishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Farg'ona vodiysi esa mazkur harakatning eng faol markazlaridan biri sifatida ajralib turdi. Qo'qon, Namangan, Andijon va Marg'ilon shaharlarida yangi usul maktablari ochildi, kutubxonalar, matbaa va nashriyotlar faoliyat yurita boshladi. Jadidlar ta'limni isloh qilish, dunyoviy fanlarni o'qitish, milliy matbuotni rivojlantirish hamda xalqning siyosiy va ma'naviy ongini yuksaltirishni o'z oldilariga bosh maqsad qilib qo'ydilar. Farg'ona vodiysi jadidchiligining rivojida Ishoqxon Ibrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho'lpon, Muqimiy, Furqat kabi ma'rifatparvarlar muhim o'rin egalladi. Ularning pedagogik, adabiy va publitsistik faoliyati milliy o'zlikni anglash, Vatan ravnaqi va zamonaviy taraqqiyot g'oyalarining keng yoyilishiga xizmat qildi. Ayniqsa, yangi usul

maktablarining tashkil etilishi, darsliklarning yaratilishi va milliy matbuotning shakllanishi Turkiston jamiyatida modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirdi. Mazkur tadqiqotning maqsadi Farg'ona vodiysi jadidlarining milliy uyg'onish jarayonidagi o'rnini tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida yoritish, ularning ma'rifatparvarlik faoliyati hamda Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga qo'shgan hissasini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Bu masalaning o'rganilishi nafaqat jadidchilik tarixini chuqurroq anglash, balki O'zbekistonning milliy davlatchilik va ma'naviy taraqqiyot tarixini haqqoniy yoritishda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Farg'ona vodiysidagi jadidchilik harakati o'zining chuqur mahalliy ildizlariga ega. Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayotda jahon xalqlaridan ortda qolayotganligini XIX asrning ikkinchi yarmida yashab o'tgan ilg'or fikrli ziyolilar o'z vaqtida anglab yetgan edilar. Ular bu qoloqlik iskanjasidan qutulishning yagona yo'li deb ilm-ma'rifatni tanladilar. Ushbu davrda ijod etgan shoir **Zokirjon Furqat** ilm-fanning taraqqiyot uchun nechog'lik ahamiyatli ekanligini anglagan holda quyidagi baytni bitgan edi:

Kerak har ilmdan bo'loq xabardor,

Bo'lur har qaysi o'z vaqtida darkor.

Shuningdek, ilg'or ma'rifatparvar **Sattorxon Abdug'afforov** ham o'zining bu sohadagi fikrlarini "Turkiston viloyatining gazetisi" da quyidagicha ifodalagan edi: **"...Bizlar tavorix kitoblaridin ko'ramizkim, har bir xalq o'zlariga yaqin hamsoylarining har nav' ilmlarini har vaqt o'rganib va ham o'zlariga yaqin mamlakat xalqlariga o'rgatib kelganlar. Bizlarga uyat va aybdurkim, bizlarning burungi olimlarimiz ilm bobida baland darajada turub, hatto boshqalarga ta'lim berib turg'on bo'lsalar, bizlar hamma xalqdin ul bobda pastlik maqomida qolsok". O. Mahmudov yozadiki:** "Turmushimizga bank, veksell, bosmaxona, zavod kabi yangiliklar kirib keldi. Hayotiy zarurat yangi usuldagi ta'limni talab qilmoqda. Endilikda bundan boshqa yangiliklar ham hayotimizga kirib kelmoqda. Shu bois zamonaga qarab ish yuritmoq lozim".(5,45-67-68)

Ilm taraqqiyotning negizi ekanligini anglab yetgan ilg'or ziyolilar avvalo qoloqlikdan qutulishning asosiy sharti deb ma'rifatni tanladilar. Shu maqsad yo'lida XIX asrning so'nggi choragida vodiya dastlabki yangi usul maktablari ochildi. Farg'ona o'quv yurtlari inspektorining Turkiston o'quv yurtlari bosh inspektoriga 1909-yil 6-dekabrda yo'llagan yangi usul maktabi haqidagi ma'lumotnomasida ko'rsatilishicha, vodiya dastlabki yangi usul maktablari Qo'qon uyezdida Ahmadjon qori tomonidan 1892-yilda ochilgan. Farg'onadagi jadidchilik harakatining atoqli namoyandalaridan Is'hoqxon Ibrat ham Qo'qonda madrasani tamomlagach, 1886-yilda To'raqo'rg'onda maktab ochadi, lekin u tez orada yopiladi. Jadidlarning harakati tufayli XX asr boshlariga kelib vodiya o'nlab yangi usul maktablari faoliyat ko'rsatmoqda edi.(4,48)

Arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga qaraganda, Turkiston o'lkasida dastlabki jadid maktablari Farg'ona viloyatida ochilgan. O'quv yurtlari bosh inspektori arxiv fondida saqlanayotgan Farg'ona viloyati yangi usul maktablari ro'yxatidagi dalillar Qo'qon shahrida birinchi yangi usul maktablari XIX asrning 90-yillarida tashkil qilinganligidan dalolat beradi. Qo'qondagi 10 ta yangi usul maktablaridan 4 tasi 1893-1900-yillarda bunyod etilgan. Qo'qondagi birinchi jadid maktabi 1893-yilda Mirayubboy mahallasida tashkil qilingan. Bu shahardagi eng yirik maktablardan biri bo'lgan. Undagi 100 o'quvchiga o'qituvchi Ahmadjon Qori va uchta yordamchisi ta'lim bergan. 1899-yilda Holi bobo mahallasidagi masjid qoshida

yangi usul maktabi ochilgan. Unda 25 o'quvchi o'qigan va 1908-yilgacha tatar o'qituvchi, keyinchalik o'zbek Xo'jaxon Ahmadxo'ja o'qituvchilik qilgan. Ustam Banaul mahallasida 1899-yili ochilgan yangi usul maktabida 115 o'quvchi o'qigan va o'qituvchi Mahmudjonxon Muhammadov dars bergan. Beshqovoq mahallasi masjidi qoshida 1900-yilda ochilgan yangi usul maktabida 115 o'quvchi bo'lib, tatar Salohiddin Mazitov ta'lim bergan. Bulardan tashqari Qo'qonning Dahma Dahan mahallasida 1901-yilda, G'alcha soy mahallasida 1902-yilda, Bekbachcha mahallasida 1904-yilda yangi usul maktablari tashkil qilingan. (1,65)

Farg'ona jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri Obidjon Mahmudov (1858–1936) bo'lib, u Sankt-Peterburg kon-metallurgiya institutini tamomlagan va Turkistondagi ilk o'zbek tog' muhandisi sifatida faoliyat yuritgan. Uning tashabbusi hamda bevosita rahbarligi ostida 1914-yilda Qo'qon shahrida bosmaxona tashkil etildi. Mazkur bosmaxonada Farg'ona jadidlarining **"Sadoyi Farg'ona"** hamda rus tilidagi **"Эхо Ферганы"** gazetalarini nashr etila boshlandi. Ayniqsa, **"Sadoyi Farg'ona"** gazetasi nafaqat Turkiston o'lkasida, balki Rossiya musulmonlari orasida ham keng shuhrat qozondi. Obidjon Mahmudov jadid matbuotida muntazam chiqishlar qilib, ma'rifat, erk, mustaqillik va milliy o'zlikni anglash g'oyalarini targ'ib etish orqali Farg'ona vodiysida milliy uyg'onish jarayonining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shdi. (3,262)

Farg'onadagi jadidchilik harakatining atoqli namoyandalaridan Is'hoqxon Ibrat ham Qo'qonda madrasani tamomlagach, 1886-yilda To'raqo'rg'onda maktab ochadi, lekin u tez orada yopiladi. (5,48)

Is'hoqxon tomonidan keyinchalik 1910-yilda tashkil qilingan "Kutubxonayi Is'hoqiya" nomidagi ancha boy kutubxonasida "Turkiston viloyatining gazetasi". "Turkestanskiye vedomosti" gazetalarining ba'zi yil boylamlari, "Tarjumon" gazetasining, hatto, 1885-1886-yilgi boylamlari (to'liq bo'lmasa-da) ham bo'lgan. (2,10).

XX asr boshlarida butun Rossiya imperiyasida talabalar harakati keng yoyilgani kabi, musulmon madrasalarida ham talabalarning siyosiy faolligi bir muncha ortgan edi. Jumladan, Farg'onada ham dastlabki taraqqiyparvar jamiyatlar tashkil topdi. 1908-yilga kelib esa, Qo'qon shahrining bir guruh ilg'or fikrli madrasa talabalari tomonidan «Shamsinur» jamiyati tuziladi. Jamiyat yig'ilishlarida o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalar ham muhokama qilingan. «Shamsinur» jamiyati faoliyatida jadidlarning sezilarli ta'siri bo'lgan. Farg'onaning atoqli jadidlaridan Hamza Hakimzoda Niyoziy ham o'z siyosiy faoliyatini ilk bor shu jamiyatdan boshlagan. 1912-yil 20-iyulda Qo'qon shahrida «Qo'qon artistlar to'garagi» tashkil etilgan bo'lib, Hamza uning asoschilaridan biri edi. To'garakning maqsadi dramatik asarlarni o'rganish va ularni sahnalashtirish hamda san'at havaskorlarini unga jalb etishdan iborat edi. 1914–1916-yillar mobaynida u 18 dan ortiq adabiy-publitsistik asarlar yaratdi. Birinchi jahon urushi yillarida o'lka ziyolilari ijtimoiy-siyosiy hayotga faol aralasha boshladilar. (4,49)

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, Farg'ona vodiysi XX asr boshlarida Turkistondagi jadidchilik harakatining eng faol va ta'sirchan markazlaridan biriga aylandi. Bunga vodiyni iqtisodiy rivojlanganligi, shahar madaniyatining yuksakligi, savdo-sanoatning taraqqiy etgani hamda ma'rifatparvar ziyolilar qatlamining shakllangani asosiy omil bo'ldi. Qadimchilik tarafdorlarining qarshiligiga qaramay, vodiylar jadidlari yangi usul maktablarini tashkil etish, zamonaviy ta'limni rivojlantirish va xalqni ilm-ma'rifatga chorlash borasida izchil faoliyat olib bordilar. Natijada Farg'ona vodiysi jadidchilik g'oyalari eng keng yoyilgan hududlardan biriga

aylandi. 1917-yil noyabr oyida aynan Qo'qon shahrida Turkiston musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi chaqirilib, **27-noyabrda (eski hisob bo'yicha) Turkiston Muxtoriyati e'lon qilindi**. Bu voqea Turkiston xalqlarining milliy davlatchilik sari tashlagan ilk siyosiy qadami sifatida tarixga kirdi. Muxtoriyatning Qo'qonda tashkil etilishi Farg'ona vodiysining jadidchilik harakati va milliy uyg'onish jarayonidagi yetakchi o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bois Farg'ona vodiysi jadidlarining ma'rifiy, siyosiy va madaniy merosi nafaqat hudud, balki butun Turkiston tarixida milliy taraqqiyot va istiqlool g'oyalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi

Foydalanilgan adaiyotlar:

1. Alimova N.I. Chor Rossiyasining Turkistonda milliy madaniyat sohasida olib borgan siyosati (1867–1917 yillar): Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2004. – 146 b.
2. Dolimov U. Jadidlar. Is'hoqxon-to'ra Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 180 b.
3. Алимова Д. Жадидчилик феномени. – Тошкент: «Akademnashr», 2022. – 276 б.
4. Жадид маърифатпарварларининг миллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти: Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2016. – 215 б.
5. Козоқов Т. XX аср бошларида Фарғона водийсидаги ижтимоий-сиёсий аҳвол ва жадидчилик ҳаракати: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2001. – 185 б.

INNOVATIVE
ACADEMY